

SAMARQANDDAGI BUYUK IPAK YO'LI TURIZM MARKAZI: YANGI INFRATUZILMA VA XALQARO SAYYOHLIK OQIMI

Xudoberganov Qobuljon Mirzatolib o'g'li

Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

qobuljon2092@gmail.com

Turg'unbayeva Muxlisa Sunnatullo qizi

Qo'qon universiteti talabasi

turgunbayevamuxlisa@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi Samarqand turizmiga "Buyuk Ipak yo'li" turizm markazi: infratuzilma va xalqaro sayyohlik oqimi shuningdek, yangi qurilgan turistik majmualar (kongress markazi, mehmonxonalar, amfiteatr va boshqa turistik joylar) qanday natijalar bermoqda. Tezishda, samarqanddagi turizm markazining dunyo bo'ylab sayyohlarni jalb qilishdagi rolini, xalqaro turizm bozorida O'zbekistonning o'rnini oshirishdagi imkoniyatlar haqida ma'lumotlar. Xalqaro tadbirlar va festivallar, turizm marketingi va reklama, shuningdek, yangi hamkorliklar orqali Samarqandning global turizm xaritasidagi ahamiyati o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Samarqand, Buyuk Ipak yo'li, turizm markazi, infratuzilma, xalqaro sayyohlik, iqtisodiy o'sish, madaniy meros, turizm rivojlanishi.

Kirish: Samarqand – milliy davlatchiligimizga asos bo'lgan, tariximizdagi ikkala Renessans davrida ham muhim o'rin tutgan shahar. Shu bois sayyohlar bu yerga asosan qadimiy obidalarini ko'rish va tabarruk joylarni ziyorat qilish uchun kelar edi. Turizmning boshqa yo'nalishlari uchun zamonaviy majmualari yo'q edi. 2019-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan katta ambitsiyali loyiha boshlandi - Samarqand tumanidagi eshkak eshish kanali bo'yida, 212 gektar maydonda ulkan majmua qurishga kirishildi. Avvalo, tajribali me'mor va muhandislardan iborat xalqaro jamoa jalb etilib, puxta loyiha ishlab chiqildi. Davlatimiz rahbari bu yerga bir necha marta kelib, qurilishni milliy me'morchilik an'analaramiz va odamlarga qulaylik jihatidan takomillashtirdi. Bunyodkorlik ishlarida malakali quruvchilarimiz bilan birga Turkiya, Buyuk Britaniya, Italiya kabi davlatlarning yetuk mutaxassislari ishtirok etdi. Bu ko'p tarmoqli markaz tarkibida 8 ta zamonaviy mehmonxona, dunyoning yetakchi mehmonxonalari ro'yxatiga kiritilgan 22 qavatli "Samarqand Regency Amir Temur" mehmonxonasi va Kongress xoll, "Boqiy shahar" majmuasi, amfiteatr va ko'plab boshqa inshootlar bor. Markazda shu yilning kuzida O'zbekistonda ilk bor "Silk road literary festival" bo'lib o'tadi. U yiliga 2 million turistga xizmat ko'rsatishi mumkin. Bu ulkan markaz buyuk ajdodlarimiz bunyod etgan muhtasham me'moriy obidalariga munosib bo'lib, ularning tarixiy an'alarini davom ettiradi. Ushbu majmua mamlakatimizda hozirgi paytda poydevori qurilishi boshlangan Uchinchi Renessans va oldingi tarixiy davrlar o'rtasidagi ramziy ko'pri bo'lishi kutilmoqda. Bu yerda qadimiy bozor, mamlakatimizning barcha hududlariga xos 40 ta hunarmandlik ustaxonasi tashkil etilgan. Unda ustalar yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish kabi jarayonlarini sayyohlarga namoyish etadi. Bu mamlakatimizda sayyohlik industriyasini rivojlantirish borasidagi ulkan ishlarning bir qismi. Yangi turizm markazi kelgusi yillarda Samarqandga keladigan xorijiy sayyohlar sonini 1,5 milliondan oshirishda muhim o'rin tutadi. Umuman olganda, kelgusi besh yilda mamlakatimizga keladigan sayyohlar sonini hozirgi 2 milliondan 9 millionga yetkazish maqsad qidingan. Eng muhimi, turizm sohasida faoliyat olib borayotganlar soni 500 mingdan oshadi. Ma'lumot o'rnida aytib o'tishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turizm markazining ochilish marosimida ishtirok etish uchun 2022-yil 23-avgust kuni Samarqandga keldi.

Asosiy qism: Buyuk Ipak yo'li Samarqandni butun dunyo bilan bog'lab, shaharning global ahamiyatini yanada oshirgan. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish strategiyasining muhim qismlaridan biri sifatida Samarqanddagi yangi turizm markazi "Buyuk Ipak yo'li" qurilmoqda. Ushbu loyiha nafaqat turizmni rivojlantirish, balki yangi infratuzilma yaratish, xalqaro sayyohlik oqimini jalb qilish va mintaqaviy iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan. Shu maqsadda dastavval SHHTning Samarqanddagi sammitiga juda katta tayyorgarlik ko'rildi. Mehmonlarni

munosib kutib olishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Yangi komplekslar, mehmonxonalar, yo'llar, yangi infrotuzilmalar bunyod etildi. Xalqaro turizm markazi qurilib foydalanishga topshirilgandan so'ng. Markazdagi Mehmonlarimizda Markaziy Osiyo davlatlaridan ekanligini inobatga olgan holda, ularni O'zbekistonga, jumladan, Samarqandga qiziqishini tahlil qilib, ularning bu yerda bo'lib turgan vaqtini samarali o'tkazish maqsadida Turizm va madaniy meros vazirligi, Samarqand viloyat hokimligi tomonidan dastur ishlab chiqarildi. Dasturda sammitning asosiy yig'ilishlari o'tkazilganidan keyin mehmonlar, delegatsiya a'zolari va yurtimizga tashrif buyurgan mehmon davlatlar delegatsiyalariga O'zbekistonning turizm salohiyatini, madaniy meros obyektlarini ko'rsatish va tanishtirish, qolaversa, bizning boy madaniy merosimiz va milliy urf-odatlarimizni, an'ana va qadriyatlarimizni ko'rsatish maqsadida ham universitet xiyobonida katta madaniyat ko'chalari tashkil qilindi. Turistik markazda nafaqat sayohatchilarni, balki ishbilarmon mehmonlarni ham kutib olish rejalashtirilgan. Kongress markazi 18 ming kvadrat metrlik funksional maydonga ega. Yuqori texnologiyali zalda 3500 ishtirokchiga mo'ljallangan o'n uchta konferensiya zallari mavjud. Kongress markazi binosiga "Quyosh" nomli kinetik haykal o'rnatilgan. Instalyatsiya muallifi taniqli britaniyalik haykaltarosh, asli samarqandlik — Yunus Safardiyor haykal ustida ikki yil ishlagan. Kompozitsiya Sharqning cheksiz saxovatini o'zida mujassam etgan. Turistik markazining yana bir yo'nalishi — sog'lomlashtirish turizmi. Dam olish maskanining tibbiy klasteri to'rtta Vellness Park mehmonxonalari bilan ifodalanadi. Ularning har biri keng qamrovli tibbiy ko'rikdan o'tkazish va tanani yaxshilash uchun mo'ljallangan dasturlarga muvofiq ishlaydi. Majmua hududining uchdan ikki qismini bog' hududi egallab, u yerda Germaniya, Belgiya, Italiya va Gollandiyadan 50 mingdan ortiq atirgul, 30 ming tup daraxt va yuz minglab butalar ekilgan.

"Buyuk Ipak yo'li" turizm markazining infratuzilmasi birinchi navbatda transport tizimiga e'tibor qilish kerak. Samarqandga yirik infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi, xususan, aeroportning kengaytirilishi va yangi xalqaro yo'nalishlarning ochilishi, shuningdek, temir yo'l va avtobus transporti tizimining yaxshilanishi, shaharga kelgan sayyohlar uchun qulayliklar yaratadi. Yangi yo'l va transport tarmoqlari sayohatlarni tez va qulay qilishga yordam beradi, bu esa turizmni yanada jalb qilishi mumkin.

Mehmonxona va turistik xizmatlar. Yangi zamonaviy mehmonxonalar, turistik komplekslar va restoranlar qurilishi shaharning turizm infratuzilmasini kengaytiradi. Sayyohlar uchun barcha xizmatlar – mehmonxonalardan tortib, madaniy obidalarini ko'rishga qadar, yuqori darajada taqdim etiladi. Bu, o'z navbatida, Samarqandni xalqaro darajada raqobatbardosh qilishga yordam beradi. *Raqamli infratuzilma.* Sayyohlar uchun Wi-Fi, mobil ilovalar va onlayn xizmatlar kabi raqamli infratuzilma joriy etilmoqda. Bu sayyohlar uchun qulaylik yaratish va shaharda oson harakatlanishni ta'minlashga imkon beradi.

Madaniy va tarixiy obidalar. "Buyuk Ipak yo'li" turizm markazi shahrning tarixiy obidalarini saqlash va ularga bo'lgan sayohatni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Samarqandning mashhur tarixiy joylari, masalan, Registon maydoni, Shah-i-Zinda, Ulug'bek rasadxonasi, Bibi-Xonim masjidi va boshqa madaniy meros obidalarini zamonaviy vositalar bilan ta'minlanmoqda, shu bilan birga, sayyohlarning xavfsizligi va qulayligi ta'minlanadi.

Xalqaro sayyohlik oqimi va turizm markazining roli. Samarqandda "Buyuk Ipak yo'li" turizm markazining qurilishi, shaharning global turizm xaritasidagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Samarqandning geografik joylashuvi va tarixiy ahamiyati, bu markazni xalqaro sayyohlar uchun jozibali qiladi.

Xalqaro tadbirlar va festivallar. Samarqandda xalqaro turizm bozorida e'tibor qaratish uchun turli madaniy tadbirlar va festivallar o'tkaziladi. Bu tadbirlar sayyohlarni jalb etishda katta rol o'ynaydi. Samarqandda har yili xalqaro madaniyat festivallari, musiqiy va san'at tadbirlari, shuningdek, "Buyuk Ipak yo'li" festivalining o'tkazilishi, turizmni yanada rivojlantiradi va shaharning xalqaro maydondagi ahamiyatini oshiradi.

Sayyohlar oqimi. Yangi turizm markazi Samarqandga kelayotgan sayyohlarning sonini sezilarli darajada oshirishga yordam bermoqda. Asosan, Osiyo, Yevropa, Amerika va boshqa

qit'alaridan kelayotgan sayyohlar samarqanddagi tarixiy obidalar va yangi xizmatlar bilan tanishishga qiziqish bildirmoqda. Bu esa Samarqandning iqtisodiy o'sishiga va yangi ish o'rinlari yaratishga yordam beradi.

Marketing va reklama. Samarqandni turizm markazi sifatida dunyo bo'ylab tanitish uchun marketing kampaniyalari va reklama ishlari amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning turistik imkoniyatlarini reklama qilish uchun turli xalqaro ko'rgazmalar va sayohat yarmarkalarida ishtirok etilmoqda. Bu marketing strategiyalari Samarqandni butun dunyo bo'ylab tanitishda va sayyohlarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiy va ijtimoiy ta'sir. "Buyuk Ipak yo'li" turizm markazi nafaqat turizmni rivojlantirish, balki mintaqaviy iqtisodiy o'sishni ta'minlashga ham xizmat qilmoqda. Samarqandda turizmning rivojlanishi, yangi ish o'rinlarini yaratish va mahalliy aholi uchun qo'shimcha daromad manbalarini tashkil etish imkonini beradi. Buning natijasida shaharning iqtisodiy infratuzilmasi mustahkamlanadi. Shuningdek, yangi turizm markazi mahalliy madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga ham yordam beradi. Samarqandning tarixiy obidalarini qayta tiklash va ularni zamonaviy sayyohlik ehtiyojlariga moslashtirish orqali, bu merosni saqlashda muhim qadamlar tashlanadi.

Xulosa: Samarqanddagi "Buyuk Ipak yo'li" turizm markazi loyihasi, O'zbekistonning turizm sohasini global miqyosda rivojlantirishdagi muhim qadamdir. Samarqandning tarixiy va madaniy merosi, Buyuk Ipak yo'li bo'ylab o'zining strategik joylashuvi, shaharni xalqaro turizm xaritasida alohida o'ringa qo'yadi. Ushbu markazda yaratilgan yangi infratuzilma - transport tarmog'i, mehmonxona xizmatlari, madaniy obidalarni saqlash va raqamli xizmatlar - Samarqandni zamonaviy turizm ehtiyojlariga moslashtirib, sayyohlar uchun qulayliklar yaratadi.

Xalqaro sayyohlik oqimi va turizmni rivojlantirishda "Buyuk Ipak yo'li" markazining roli beqiyosdir. Yangi transport tarmoqlari va xalqaro tadbirlar orqali Samarqand sayyohlarni jalb qilishda mustahkam o'rin egalladi. Bu, o'z navbatida, shaharning iqtisodiy o'sishiga, yangi ish o'rinlari yaratishga va mahalliy aholining farovonligini oshirishga olib keladi. Samarqanddagi turizmning rivojlanishi, shuningdek, madaniy merosni saqlash va rivojlantirishni ta'minlab, turizmni barqaror va uzoq muddatli rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, bu loyiha O'zbekistonning global turizm bozorida raqobatbardoshligini oshiradi va davlatning iqtisodiy rivojlanishiga hamda xalqaro aloqalarini mustahkamlashga katta hissa qo'shadi. Samarqandning sayyohlar uchun yanada jozibador bo'lishi, iqtisodiy va madaniy yutuqlarni erishishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli, "Buyuk Ipak yo'li" turizm markazi Samarqandni butun dunyoda tanitishda va uning xalqaro turizm sanoatida mustahkam o'rin egallashida muhim rol o'ynamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Doctor Chaturaporn Sihabutr (2012) Technology and international specialisation in tourism. 121-122 pp.
2. Gulomkodirova, M. S. Qizi. (2024). A STUDY ON VARIOUS E-RECRUITMENT TOOLS AND ITS EFFECTIVENESS FOR RECRUITMENT. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10(10), 32-34. <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.902>
3. Tojiyeva, M. M. (2024). O 'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHDA OLIMPIADA MASALALARINI O 'QITISHNING AHAMIYATI. Kokand University Research Base, 444-448.
4. Yuldasheva Nilufarxon a'zamjon qizi, (2024) [XULQ-ATVOR MOLIIYASINING ASOSLARI VA UNING INVESTORLARNING QAROR QABUL QILISHDAGI O'RNI](#) University Research Base, 2024 Retrieved from: <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/510>
5. Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li. (2024). ICHKI AUDITNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI. University Research Base, 810-811. Retrieved from <https://sc>

6. Melibaeva Gulxon Nazrullaevna. (2023). AN OVERVIEW OF THE FUNCTION OF HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN EMPLOYEE PERFORMANCE AND MOTIVATION. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 117–121. <https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.850>
7. Aliyevich, Y. A. (2023). O 'ZBEKISTON IQTISODIY SHAROITIDA INSON RESURLARIDAN FOYDALANISHDAGI FAOLIYAT TURLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 76-78.
8. Gulomkodiroya Mamura Saydumarxon qizi. (2024). A STUDY ON SAFETY MEASURES IMPLEMENTED BY LE ROMA GARDENIA RESORT (VRS INFRA) DURING THE COVID-19 PANDEMIC. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(2), 78–84. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/6446>
9. Omonjon, U. (2024). ILMIY TURIZM VA UNING YEVROPA DAVLATLARIDA RIVOJLANISHI. Kokand University Research Base, 940-943.
10. Turanboyev Boburjon Qodirjon o'g'li. (2024). DAVLAT SOLIQ SIYOSATIDA EKOLOGIK SOLIQLARNI JORIY ETISH ORQALI TABIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHGA ERISHISHNING AHAMIYATI. Kokand University Research Base, 927–930. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/259>
11. Qodirjon o'g'li, T. B. (2024). SUV RESURLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 151-153.
12. Ismoilov, B. (2024). TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI DAVLAT XARIDLARIDAGI ISHTIROKI:(Farg'ona viloyati misolida). QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 133-135.
13. Yormonqulova, N. (2024). IQTISODIY O'SISH OMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10(10), 109–112. <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.922>
14. Jurayev, U. (2024). TURIZM MOLIIYASIDA INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALARNING ROLI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 75–77. <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1027>

SHAHNISABZDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH.

Raxmonova Nilufarxon A'zamjon qizi

Qo'qon universiteti Xalqaro turizm va
iqtisodiyot kafedrasi o'qtuvchisi
umarovomonjon1994@gmail.com

Ahmedova Ruxshona Rahmatjon qizi

Qo'qon universiteti talabasi,

Annotatsiya: Ushbu tezisda Shahrisabzning turizm salohiyatini yaxshilash va uni dunyo bo'ylab tanitish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, Shahrisabz, turistik salohiyati, Amir Temur, turistik inshootlar, transport, tarixiy merosni saqlash.

Kirish: Shahrisabz O'zbekistonning tarixiy va madaniy merosi bilan boy bo'lgan qadimiy shaharlardan biridir. Bu shaharda Amir Temur va uning hukmronligi davriga oid ko'plab tarixiy yodgorliklar mavjud bo'lib, ular xalqaro turizmga katta ahamiyatga ega. Shahrisabzda turizmni rivojlantirish, bir tomondan, tarixiy obidalarni saqlash va tiklash, boshqa tomondan esa, zamonaviy infratuzilma yaratish bilan bog'liq. Tarixiy merosni saqlash va yangi infratuzilma yaratish orqali Shahrisabz nafaqat O'zbekiston, balki jahon turizm bozorida o'zining mustahkam o'rnini egallash imkoniyatiga ega bo'ladi. Avvalo, Shahrisabz jahonning eng qadimgi shaharlaridan biri ekanligini unutmasligimiz lozim. Olimlarning fikricha Shahrisabz 2700 yoshda bu esa "Boqiy shahar" Rimning yoshidir. YUNESKO qaroriga ko'ra aynan shu sana 2002-yilda butun madaniy dunyoda nishonlangan.